

.....

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA SYUJET VA KOMPOZITSIYA

Kamola Botirkulova
Alfraganus universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayevning “Odam” hikoyasi syujet va kompozitsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Asarda yozuvchining inson ruhiyati, hayot sinovlari va milliy xarakter tasviridagi badiiy mahorati yoritilib, Rahima obrazi misolida sabr, matonat, mehr va yashashga bo‘lgan intilish g‘oyalari ochib beriladi. Tadqiqotda hikoyaning syujet qurilishi – ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim bosqichlari ilmiy asosda tahlil etilib, ularning qahramon ruhiy olamini ochishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, kompozitsiyada retrospektiv tasvir, ichki monolog, xotira lavhalari, vaqt va makon uyg‘unligining badiiy funksiyasi hamda ularning asarning g‘oyaviy yaxlitligini ta’minlashdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida Shukur Xolmirzayev syujet va kompozitsion vositalardan mohirona foydalanish orqali inson ruhiyati va davr voqeligini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan iste’dodli hikoyanavis ekanligi xulosalanadi.

Kalit so‘zlar: Shukur Xolmirzayev, “Odam” hikoyasi, syujet, kompozitsiya, hikoyachilik, psixologik tahlil, Rahima obrazi, badiiy mahorat, ichki monolog, retrospektiv tasvir, milliy xarakter, o‘zbek nasri, inson ruhiyati, badiiy tahlil.

Shukur Xolmirzayev o‘zbek nasrining yangilanishida muhim o‘rin tutgan ijodkorlardan biridir. U hikoya janriga yangi ruh, psixologik teranlik va hayotiylik olib kirgan adib sifatida tanilgan. Yozuvchi oddiy odamlarning taqdirini katta badiiy mahorat bilan tasvirlab, inson ruhiyati, mashaqqati va orzularini nozik ochib berishga intildi. Uning asarlarida milliy xarakter, zamon o‘zgarishlari ifoda topadi. Shukur Xolmirzayev o‘zbek hikoyachiligiga sodda, ravon til va hayot haqiqatiga sodiq tasvirni olib kirib, nasrimiz rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan.

Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayev asarlarida, avvalo, inson taqdirini, uning ruhiy olamini va hayot oldidagi sinovlarini tasvirlasi, yozuvchi e‘tiborini

ko‘pincha oddiy insonlar, mehnatkashlar, bevalar, qariyalar, qishloq ahli hayotiga qaratishi, ijodkor qahramonlarining ruhiy jarayonlarini mayda detallar, tabiat manzaralari va o‘tmish xotiralari orqali chuqur yoritish kabi masalalar “Odam” hikoyasi misolida syujet va kompozitsion vositalardan mahorat bilan foydalangani tahlilga tortiladi.

Yozuvchi insonning yashashga bo‘lgan intilishi, sabr va mardlik kuchini tarannum qilib, o‘zbek nasriga real hayot ruhi va psixologik teranlik olib kirgan. Misol uchun, Shukur Xolmirzayevning “Odam” hikoyasi inson umrining og‘ir va murakkab yo‘lini oddiy ayol obrazi orqali yorituvchi chuqur mazmunli asardir. Hikoyada Rahimaning bolalikdan qarilikka qadar boshdan kechirgan sinovlari, uning mardona sabri va tinimsiz kurashi asosiy g‘oyani tashkil etadi. Yozuvchi ayolning turmushdagi qiyinchiliklari, eridan ko‘rgan zo‘ravonligi, qochqinlik yillari, ocharchilik, farzandlar taqdiri, urushning ayanchli oqibatlari kabi voqealarni hayotiy detallar bilan ko‘rsatadi [1]. Rahimaning o‘tmishni eslab, bugungi kun bilan adashtirib yuborishi inson ruhining charchashi, ammo baribir sinmasdan yashashga intilishini ifodalaydi. Hikoya bir ayol taqdirini tasvirlagan bo‘lsa-da, unda butun xalqning tarixiy iztiroblari va bardoshi mujassam. Muallif insonning ichki kuchi, mehrga tashnaligi, halollik va sabr kabi qadriyatlarni ulug‘laydi. Asar hayotning og‘irligiga qaramay, yashashga bo‘lgan ishonchni saqlab qolish g‘oyasini ilgari suradi.

Badiiy asar syujeti an‘anaviy ravishda ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim kabi asosiy bosqichlardan iborat bo‘lib, ular orqali voqealar tizimi izchil rivojlanadi va muallif g‘oyasi ochib beriladi [4;112-115].

Shukur Xolmirzayevning “Odam” hikoyasi syujeti ham ushbu klassik model asosida qurilgan bo‘lib, unda oddiy ayol taqdiri orqali insonning hayot sinovlari qarshisidagi ma‘naviy matonati va ruhiy bardoshi yoritiladi. Hikoyaning ekspozitsiyasi Rahimaning qizlik davriga oid tasvirlar bilan boshlanadi. Uning soy bo‘yidagi holati, onasining nasihati hamda Shodmon polvon bilan dastlabki uchrashuvi keyingi voqealar rivoji uchun badiiy zamin yaratadi. Ushbu qismda qahramon xarakterining dastlabki chizgilari, uning ichki olami va atrof-muhit bilan munosabati ochib beriladi. Asardagi tugun Rahimaning turmushga chiqqach duch kelgan hayotiy ziddiyatlar bilan bog‘liq. Xususan, Shodmonning beva ayol bilan munosabatda

bo'lishi, Rahimaga nisbatan zo'ravonlik va adolatsizliklar asosiy konfliktini yuzaga keltiradi. Bu ziddiyat faqat oilaviy muammo doirasida emas, balki ayol taqdiridagi ijtimoiy tengsizlik va zulmning umumlashgan ifodasi sifatida ham namoyon bo'ladi [3;78-80]. Voqealar rivoji bosqichida Rahimaning hayoti keng ijtimoiy-tarixiy fon bilan uzviy bog'langan holda tasvirlanadi. Qochqinlik, ocharchilik, urush yillari, kolxoz tizimining shakllanishi, farzandlar tarbiyasi kabi omillar qahramon taqdirini murakkablashtiradi. Shu bilan birga, bu sinovlar Rahimaning ichki mustahkamligi, sabr-toqati va hayotga bo'lgan munosabatini yanada teran ochishga xizmat qiladi. U bevalikda farzandlarini voyaga yetkazib, hayot zarbalariga bardosh bera olgan matonatli ayol obrazi sifatida gavdalanadi. Hikoyaning kulminatsiyasi Rahimaning keksaygan chog'ida hushidan ketib, o'tmish va hozirgi zamon voqealarini ongida aralashtirib yuborishi orqali ifodalanadi. Ushbu epizod qahramon ruhiyatida butun umr davomida to'plangan iztiroblarning eng yuqori nuqtaga yetganini ko'rsatadi. Ruhiy portlash shaklida namoyon bo'lgan bu holat asarning emotsional cho'qqisini tashkil etadi [7;156-158]. Syujetning yechimi esa Rahimaning hushyor holatga qaytishi, farzandlaridan rozi-rizolik so'rashi va hayot bilan sokin, falsafiy xayrlashuvi orqali amalga oshiriladi. Bu yakun qahramonning ma'naviy poklanishi hamda ichki totuvlikka erishganini ifodalaydi.

Asarning kompozitsion qurilishi badiiy matnning ichki tuzilishini belgilovchi muhim unsurlardan biridir. U asarda tasvirlangan voqealar, obrazlar, syujet bo'laklari, vaqt va makon unsurlarining muallif g'oyasiga muvofiq tarzda tartibli va mantiqiy joylashtirilishini anglatadi. Kompozitsiya orqali asar qismlari o'zaro bog'lanib, bitta yaxlit badiiy tizimni hosil qiladi hamda o'quvchiga mazmunning izchil va ta'sirchan yetib borishini ta'minlaydi. Kompozitsion qurilish, avvalo, syujet elementlarining o'rinli joylashuvi bilan namoyon bo'ladi. Ekspozitsiya orqali qahramonlar va muhit tanishtirilsa, keyingi bosqichlarda ziddiyat kuchayib boradi va kulminatsiyada eng yuqori keskinlikka yetadi. Yechim qismida esa voqealar mantiqan yakunlanadi. Biroq kompozitsiya faqat syujet ketma-ketligi bilangina cheklanmaydi, balki voqealarning qanday usulda berilishi, qaysi epizodlar markazga chiqarilishi va qaysilari fon vazifasini bajarishi bilan ham belgilanadi. Asarning kompozitsion qurilishida vaqt va makon muhim ahamiyat kasb etadi. Voqealar ba'zan ketma-ketlik asosida, ba'zan esa

xotira, ichki monolog yoki retrospektiv lavhalar orqali berilishi mumkin. Bu holat qahramon ruhiy olamini chuqurroq ochishga xizmat qiladi [4;110-116]. Shuningdek, asosiy va ikkinchi darajali obrazlarning o‘zaro munosabati ham kompozitsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Asarda markaziy obraz atrofida boshqa obrazlar birlashtirilib, mazmuniy yaxlitlik yaratiladi. Kompozitsiya nuqtayi nazaridan “Odam” hikoyasi Rahima hayotining bosqichma-bosqich ochilishiga asoslangan. Asarda real vaqt tasviri bilan xotira lavhalari almashib keladi. Muallif ichki monologlar, keskin vaqt o‘tishlari va sokin tasvirlardan foydalanib, qahramon kechinmalarini uzluksiz ruhiy oqim sifatida aks ettiradi. Hikoya kompozitsiyasining markazida Rahimaning ruhiy holati turadi va voqealar tartibi ham aynan uning xotira jarayoni bilan belgilanadi. Asar sokin, mushohadaviy ohangda yakunlanib, rozi-rizolik so‘rash sahnasi bilan mantiqan tugallanadi.

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev o‘zbek hikoyachiligiga hayotiylik, psixologik teranlik va milliy ruh olib kirgan ijodkor sifatida ajralib turadi. “Odam” hikoyasi uning badiiy mahoratini yaqqol namoyon etib, insonning butun umr davomida boshdan kechiradigan dardlari, sabr-matnati va ruhiy izlanishlarini chuqur yoritadi. Yozuvchi syujetni shunchaki qiziqarli voqea emas, balki inson ruhining tadqiqotiga aylantirgan. Asarda syujet bosqichlari mukammal uyg‘unlikda qo‘llanib, kompozitsiya qahramon xotiralari orqali tabiiy oqimda rivojlanadi. Rahimaning hayoti orqali yozuvchi oddiy insonning buyuk ma’naviy kuchini, bardoshi va insoniy qadrini ta’sirchan tarzda ifodalashga erishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xolmirzayev Sh. Hikoyalar. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 1983.
2. Xolmirzayev Sh. Odam. Hikoyalar to‘plami. –Toshkent: Sharq, 1999.
3. Mamajonov A. O‘zbek hikoyachiligi taraqqiyoti. –Toshkent: Fan, 2005.
4. Quronov D., Mamajonov, A., Sarimsoqov, B. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
5. Jo‘raev T. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
6. Rasulov R. Nasrda psixologik tasvir masalalari. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
7. Karimov N. O‘zbek adabiyotida obraz va xarakter masalalari. –Toshkent: Fan, 1996.
8. TURAEVA, B., & KUCHIMOV, U. POETIC MODELS OF THE CONCEPT

“LITERARY TIME”.

9. Lola, S. (2021). Role of Myth and Legends in the Prose of Erkin Samandar. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 10(4), 49-58.
10. Komilovna, H. T., Asrarjonovich, S. B., & Des Derivanti, A. (2025). Cross-Cultural Politeness in Indonesian and Uzbek Communication: A Linguo-Pragmatic Perspective. *Script Journal: Journal of Linguistics and English Teaching*, 10(2), 414-432.
11. Khulkar, T. (2021). Uzbek scholar Sherali Turdiev: discoverer of the closed pages. *Бюллетень науки и практики*, 7(5), 575-579.
12. Турдиева, Х. К. (2019). Акт речевого этикета в персидском и узбекском языках: выражение вежливости. *Бюллетень науки и практики*, 5(12), 516-522.
13. Syatriana, E., & Turdieva, H. (2026). Critical Digital Literacy as a Transformative Framework for Indonesian Higher Education in the Digital Age. "Alfraganus" *xalqaro Ilmiy Jurnali*, 3(5), 3-7.
14. Turdieva, H. (2025). THE SIGNIFICANCE OF TRANSLATION PROJECTS. *Alfraganus*, (5 (16)), 564-569.